



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

5. Huddy L. From Group Identity To Political Cohesion And Commitment. In Oxford Handbook of Political Psychology, 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, – 2013. pp. 361-92.
6. Kathleen D. 2014. Do women and men represent women and men? Sex and gender in election 2012. *Politics & Gender* 10: 1-24.
7. Hajnal Z., Lajevardi N., Nielson L. Voter identification laws and the suppression of minority votes // *The Journal of Politics*. – 2017. – Т. 79. – №. 2. – С. 363-379.
8. Layman G.C. Religion and political behavior in the United States: The impact of beliefs, affiliations, and commitment from 1980 to 1994 // *Public Opinion Quarterly*. – 1997. – С. 288-316.
9. Бекмуродов М.Б. Ўзбек менталитети: кеча ва бугун // *Тафаккур*. – 2002. – №2. – Б. 10-17.
10. Погорелый Д.Е. Новейший политологический словарь. – Ростов н/Д: Феникс, 2010. – С. 7.
11. Ghiuta O. The motivations of electoral absenteeism // *The annals of the university of Oradea. Economic sciences*. – Oradea, 2014. / <https://www.researchgate.net/publication/283321759>
12. Вешняков А.А., Фадеев В.И., Садовникова Г.Д. Избирательное право и избирательный процесс в Российской Федерации: методические указания. – М., 2010. – С. 55.
13. Ноэль-Нойман Э. Общественное мнение: открытие спирали молчания: пер. с нем. – М.: Прогресс. Академия: Весь мир, 1996. – 351 с.
14. Джиянмуратова Г. Ш. Нормативно-правовые основы социальной защиты молодежи в Республике Узбекистан // *Технологии социальной работы в различных сферах жизнедеятельности*. – 2023. – С. 35-40.; Жиянмуратова Г. Ш. ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ШАРОИТИДА ЁШЛАР ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛЛИГИ ДИНАМИКАСИ // *Журнал социальных исследований*. – 2020. – Т. 3. – №. 1.

DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Oltinoy Ma'mirova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

mustaqil tadqiqotchisi

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/GRYK7121

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda davlat va mahalliy hokimiyat organlari tizimini nomarkazlashtirishning huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada “Yagona darcha” va “Elektron hukumat” tizimlari, raqamli texnologiyalar va yangi qonunchilik hujjatlari orqali davlat boshqaruvining samaradorligi va shaffofligi oshirilishi, byurokratiya va korrupsiyani kamaytirish masalalari hamda mahalliy davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamohanglik yaratilishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, davlat boshqaruvi, nomarkazlashtirish, mahalliy hokimiyat, ma'muriy islohotlar, elektron hukumat, fuqarolik jamiyati, raqamli texnologiyalar, davlat xizmatlari.*

Аннотация. В статье анализируются правовые основы и практическое значение децентрализации системы государственного и местного управления в Узбекистане. В статье

анализируются вопросы повышения эффективности и прозрачности государственного управления, сокращения бюрократии и коррупции, а также налаживания координации между местными органами государственной власти и институтами гражданского общества посредством систем «Единое окно» и «Электронное правительство», цифровых технологий и новых законодательных актов.

Ключевые слова: *Узбекистан, государственное управление, децентрализация, местное самоуправление, административные реформы, электронное правительство, гражданское общество, цифровые технологии, государственные услуги.*

Abstract. The article analyzes the legal foundations and practical significance of decentralization of the system of state and local government in Uzbekistan. The article analyzes the issues of increasing the efficiency and transparency of state administration, reducing bureaucracy and corruption, and creating coordination between local state bodies and civil society institutions through the “Single Window” and “Electronic Government” systems, digital technologies and new legislative acts.

Keywords: *Uzbekistan, public administration, decentralization, local government, administrative reforms, electronic government, civil society, digital technologies, public services.*

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qildi. Albatta, bu kabi davlat va jamiyatni qurish uchun davlat boshqaruvi tizimi nommarkazlashtirilishi lozim edi. Mamlakatda o'tgan asrning 90-yillaridan davlat boshqaruvi tizimi asosan markazlashgan holda amalga oshirilar, bu jarayonda postsovet davridan qolgan meros o'zini ko'rsatib turar edi. Hattoki, deyarli 2016-yilgacha mamlakat darajasida davlat resurslarini rejalashtirish va boshqarish, davlat hokimiyati organlarini boshqarish, davlat xizmatchilari va boshqa oliy davlat mansabdorlarini tanlash, tayinlash va idora etish, fuqarolik jamiyati institutlarini boshqarish Prezident devoni va Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshirilar edi. Bu kabi vakolatlar mahalliy darajalarda hokimliklar tomonidan yakkaboshchilik asosida bajarilar edi.

O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonunining 4-moddasi “Hokimiyat vakillik organlari va hokimlarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro munosabatlari” deb nomlanib, u quyidagicha ifodalandi: “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi

tegishli hududda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashadilar, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar. Viloyat, tuman, shahar hokimi zarur bo'lgan hollarda o'z faoliyati to'g'risida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga hisobot taqdim etadi" [2].

Qonunning mazkur moddasida hokimlarni "hududda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashish", shuningdek, "hokim zarur bo'lgan hollarda o'z faoliyati to'g'risida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga hisobot taqdim etishi" belgilab qo'yilishiga qaramasdan tuman va shahar hokimlari o'zini o'zi boshqarish organlarini to'g'ridan-to'g'ri boshqara boshladi. Hokimlarni hisobotlar berib borishiga oid qonunchilik ham hayotda ishlamadi.

1999-yil 14-aprelda qabul qilingan, 2013-yil 22-aprelda qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilgan O'zbekiston Respublikasining o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunining 7-moddasida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi", deb belgilab qo'yilgan. Shunga qaramay, o'ini o'zi boshqarish organlari tuman va shahar hokimliklari boshqaruvi ostida faoliyat yuritdi. Mazkur qonunning 7-moddasi hayotda ishlamadi [1].

Mamlakatda davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishning xalqaro standartlar va rivojlangan davlatlariga xos bo'lgan huquqiy asoslari va amaliyoti 2017-yildan boshlab – Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasiga Prezident etib saylanganidan keyin boshlandi. Davlat rahbari 2016-yil 7-dekabrda "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" g'oyasini e'lon qildi. Bu g'oya ko'p o'tmasdan davlat va jamiyatning asosiy prinsipiga aylandi. Mazkur prinsipda mamlakatda davlat organlari boshqaruvini nomarkazlashtirishning inson erkinligi va huquqini ta'minlashga asoslangan talablari va istiqbollari aks etdi [5]. Mazkur prinsip mamlakatda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish islohotlarining mamun-mohiyatini belgilab berdi, mamlakatni modernizatsiyalashning eng asosiy yo'lini – huquqiy davlat qurish islohotlari boshlanganligini ifodaladi.

2017-yildan Yangi O'zbekistonning poydevorini barpo etish islohotlari davlat boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirishni amalga oshirishning yangi bosqichini boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish "Harakatlar strategiyasi"ning birinchi yo'nalishida "davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini davlat boshqaruvining markazlashtirishdan chiqarish" vazifasi qo'yildi [3].

Shuningdek, Hukumat a'zolariga nomzolarining o'zlari mutasaddi bo'lgan sohlarini rivojlantirishga oid yaqin muddatli va istiqbolli faoliyati haqidagi o'z harakat dasturi bilan deputatlar oldida e'lon qilish tartiboti shakllantirildi. Hukumat a'zolarining o'z harakatlari dasturi ijrosini amalga oshirishga oid axborotlar berishi Oliy Majlisning palatalari, ularning qo'mitalarida muntazam eshitib va muhokama qilib borilishi qoidasi yo'lga qo'yildi; viloyat, tuman va shahar davlat boshqaruv organlari rahbarlari o'z mansablariga xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi qoidasi kiritildi.

«Yagona darcha» tamoyili asosida davlat boshqaruv organlarining rasmiy veb-saytlari hamda ular portallarini birlashtirgan O'zbekiston hukumati portali yagona platformasini tashkil etilishi davlat boshqaruv tizimini nomaorkazlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Uning vositasida tadbirkorlar va fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatish va ularning davlat boshqaruv organlari axborotlaridan foydalanishlarida qulayliklar yaratildi. Qog'ozsiz ish yuritishga barham berish uchun «Ijro intizomi yagona tizimi» joriy etildi. Davlat organlari hujjatlarini qaytadan ishlab chiqish muddatlarini kamaytirish va davlat xizmatchilari o'rtasida o'zaro axborotlar almashinuvi jarayonini samarasini oshirish natijasida davlat boshqaruv organlari fuqarolar bilan yaqinlakshdi.

«Raqamli O'zbekiston» strategiyasini amalga oshirish natijalari o'laroq keng polosali internetdan foydalanish imkoniyatlari yaratildi, 2023-yilga kelib mamlakatda elektron davlat xizmatlari ulushi 64 foizga ko'tarildi.

Yagona interaktiv davlat xizmati - (My.gov) portalidagi xizmatlar qatoriga «Haydovchilik guvohnomasini yangilash», «Sportchi pasportini berish», «Talabalar turar joyiga joylashish», «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida shahodatnoma olish», «Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma yoki uning dublikatini olish» kabi yangi davlat xizmatlari turlari qo'shildi [6].

Mamlakatda “O‘zbekiston–2030” strategiyasiga muvofiq O‘zbekistonni mintaqaviy “IT-NUB”ga aylantirish belgilandi. Bu degani – barcha darajadagi davlat va jamiyat davlat boshqaruvini raqamlashtirish, aloqa infratuzilmalarini yaxshilashni taqozo etdi. Agar 2017-yilda yurtimizda IT kompaniyalari 147 tadan iborat bo‘lsa, 2024-yil boshiga kelib ularning soni 1600 taga o‘sdi. Ulardagi ish o‘rinlari 10 baravarga ko‘paydi, ular 24 mingga yetdi. Agar bu sohada 2017-yilda 600 ming dollarlik hajmdagi mahsulot eksport qilingan bo‘lsa, 2024-yil boshida bu ko‘rsatkich 300 million dollarga ko‘tarildi.

My.gov.uz yagona portali 8 mln.dan ko‘proq aholiga 570 turda onlayn xizmatlari ko‘rsata boshladi. Ijro intizomi yagona tizimi - ijro.gov.uz vositasida orqali davlat boshqaruv organlari ularning quyi tulilmalari davlat xizmatchilari tomonidan 28 mln. ta elektron hujjatlar almashinilgan [7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O‘zbekiston - 2030" [strategiyasini](#) 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son [qarori](#)da IT sohada xizmatlar eksporti hajmini 5 mlrd. dollarga, yaratilgan ish o‘rinlari sonini 100 mingga yetkazish, IT-parkda xorijiy kompaniyalar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish va ularning vakolatxonalari sonini 1 000 taga yetkazish vazifasi belgilangan edi. 2024-yil boshiga kelib IT-park rezidentlari soni 1 652 tani, shu jumladan xorijiy kapital ishtirokida 426 tani tashkil etib, ular tomonidan 12,5 trillion so‘mlik mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarildi va 344 million dollarlik eksport amalga oshirildi [4].

O‘zbekistonda davlat boshqaruvini xalqaro me‘yorlar va rivojlangan davlatlar tajribasi asosida amalga oshirishning zamonaviy huquqiy asoslari 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shakllandi. Unda mahalliy davlat boshqaruv organlariga yangi vakolatlar berildi, o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqilligi belgilandi, mamlakat tarixida ilk bor viloyat, shahar va tumanlarda hokimiyatning uchga bo‘linish prinsipining huquqiy asoslari belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-noyabrda qabul qilgan “2022-2023 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlari dasturini ishlab chiqish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishiga binoan, Yangi

O'zbekistonda davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati tizimining samaradorligini oshirish, ular faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish yo'li bilan aholining farovonligini oshirish, shuningdek va "mobil boshqaruv apparati" tizimini joriy etish belgilandi.

Hozirgi axborot asrida davlat va mahalliy hokimiyat organlari tizimini nomarkazlashtirishda, davlat organlarining o'zaro aloqalarini ta'minlashda "elektron hukumat"ning o'rne beqiyosdir. "Elektron hukumat"ni davlat boshqaruvida qo'llash natijasida shaffoflik va jamoatchilik nazoratini rivojlantirishga shart-sharoitlar tug'iladi, byurokratiya va korrupsiyaga barham berilmoqda, boshqaruv samarasi va natijadorligi oshib bormoqda.

Hozirgi davrda O'zbekistonda "elektron hukumat"ning Yagona identifikatsiya tizimi (id.egov.uz) takomillashtirilib, undan foydalanuvchilar soni 7 mln.dan oshdi, bu tizim vositasida aholi davlat idoralarining 245 dan ziyod axborot resurlaridan foydalamoqda. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ([YAIDXP, my.gov.uz](http://YAIDXP.my.gov.uz)) 400 dan ortiq davlat xizmatidan to'g'ridan-to'g'ri elektron tarzda foydalanish uchun imkoniyatlar yaratildi, elektron xizmatlarga bo'lgan talablar deyarli 10 marta oshdi barobarga oshdi (besh yilda 937 mingdan 9,5 mln taga o'sdi).

Davlat va mahalliy boshqaruv organlari va idoralari xodimlari uchun ma'muriy tartib-qoidalarini optimallashtirish va boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish – "Digital office" elektron tizimi joriy etildi. Mahalliy davlat hokimiyati boshqaruv organlari qarorlari loyihalarini ishlab chiqish, ularni boshqa idoralar bilan kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi (e-qaror.gov.uz) tizimi vositasida tahujjatlarni rasmiylashtirimaliyoti shakllandi [8].

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining ma'lumotlariga binoan, O'zbekiston Respublikasi BMT "Elektron hukumat" taraqqiyot indeksi bo'yicha 2022-yil natijalariga ko'ra jahon reytingida 0,7265 qiymat bilan 69-o'rinni egallagan edi. 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 0,7999 indeks hisobiga 6 pog'ona yuqoriga – 63-o'ringa chiqdi. O'zbekiston ilk bor "elektron hukumat"ni rivojlantirish indeksi baland guruhidan (High EGDI) juda balanddagi (Very High EGDI) guruhiga qo'shildi. Mazkur natija «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlarida 2025-yil uchun belgilangan 0,75 qiymatdan ham oshib ketdi [9].

Xulosa qilib aytganda, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar, "Yangi O'zbekiston" dasturlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali davlat boshqaruvi organlari vakolatlari optimallashtirildi, mahalliy organlar mustaqilligi va fuqarolarning boshqaruvdagi ishtiroki ta'minlandi. "Elektron hukumat" va yagona interaktiv davlat xizmatlari portali davlat xizmatlari samaradorligi va shaffofligini oshirdi, byurokratiya va korrupsiya darajasi kamaydi. Bu jarayonlar natijasida O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi demokratiya, samaradorlik va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamohanglikda rivojlanmoqda, mahalliy va milliy darajada davlat boshqaruvi sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni. 1999-yil 14-aprel. 2013-yil 22-aprelda qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilgan.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 17-son, 219-modda; 2016 y., 17-son, 173-modda, 52-son, 597-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni//O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi//<http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. 1.02.2024.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi//Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-T.: "O'zbekiston", 2017. -B.116.
6. Shazimov A. 2023 yilda O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida keng o'zgarishlar kiritildi//<https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/12/my-gov/>.
7. Prezident raqamli texnologiyalar sohasidagi natijalar va rejalar bilan tanishdi.20.12.2023 y.//[https:// president.uz/uz/lists/view/6937](https://president.uz/uz/lists/view/6937).
8. O'zbekistonda "Elektron hukumat" tizimini yanada takomillashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda// <https://darakchi.uz/uz/175104>.
9. O'zbekiston elektron hukumat reytingida 6 pog'ona yuqoriladi// <https://kun.uz/kr/news/2024/09/18/ozbekiston-elektron-hukumat-reytingida-6-pogona-yuqoriladi>.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI

Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

“O'zbek va xorijiy tillar ” kafedrasi assistenti

E-mail: salayevfazliddin7@gmail.com

Tel: +998 97 386 95 55

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/WKZF1632

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlarning rivojlanish jarayonlari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga ta'siri tahlil etiladi. Shuningdek, mamlakatda olib borilayotgan bag'rikenglik siyosati, turli millat va elat vakillarining o'zaro totuvligi, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar yoritilgan. Globallashuv sharoitida millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashning ahamiyati ochib berilib, uning jamiyat barqarorligi va rivojlanishidagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik, globallashuv, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, milliy-madaniy markazlar, tolerantlik.*

Annotation: This article analyzes the development processes of interethnic relations in the Republic of Uzbekistan during the years of independence and their impact on socio-political development. It also covers the policy of tolerance carried out in the country, reforms aimed at ensuring mutual harmony between representatives of different nationalities and ethnic groups, their rights and interests. The importance of strengthening interethnic harmony in the context of globalization is revealed, and its role in the stability and development of society is substantiated.

Key words: *interethnic relations, tolerance, globalization, socio-political stability, national-cultural centers, tolerance.*

Bugungi globallashuv sharoitida nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda millatlararo munosabatlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning har bir nuqtasida nizolar va notinchliklar avj olib bormoqda. Dunyodagi shunday tahlikali vaqtda yurtimizda olib borilayotgan davlat siyosati naqadar to'g'ri va oqilona ekanligiga ishonch hosil qilyapmiz.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab, aholi turmush sharoitini yaxshilash, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish va ijtimoiy sohani har tomonlama

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

